

## Pedagog shaxsi faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar

*A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika ta'lim nazariyasi kafedrasи katta o'qituvchisi A.Z.Sanaqulova*

*Musiqa ta'lim fakulteti talabasi M.Berdibekova*

---

**Annotation** Mazkur maqolada pedagog shaxsi faoliyati va uning shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy tayyorgarligi, layoqatlari o'ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar keltiriligan.

**Keywords.** Pedagogik faoliyat, talab, kasbiy layoqat, integratsiya, shaxsiy faoliyat, ijtimoiy maqsad.

So'nggi yillarda yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol o'sib ulg'ayish, har tomonlama chuqur bilim olishi davlatimiz oldiga qo'yilgan bosh maqsadlardan biridir. Ayni vaqtida biz ta'limda butunlay yangilanish hamda yangi tizimga o'tish, unga moslashish jarayonini boshdan o'tkazmoqdamiz. Endilikda o'quv jarayonlarini yangilangan dastur hamda standart talablarga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davr talabi bolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashadigan, kasbiy savodxonligi yuqori, metodik mahoratga ega, zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirgan inavatsion asosda darsni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga bo'lган talab kun sayin ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sون "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sон "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bugungi kunda zamonaviy o'qituvchiga, uning faoliyatiga yangidan yangi talablar qo'ymoqda.<sup>1</sup>

O'qituvchining pedagogik faoliyatida ikki tomonlama farq bo'lib, bu boshqa kasbdagi kishilar faoliyatidan ajralib turadi:

-birinchisi o'qituvchi faoliyatining maqsadsiz shaxsni shakllantirish va o'zgartirish -ikkinchisi uning intellektual, hissiy va jismoniy rivojlanish jarayonini boshqarish o'qituvchilik kasbining asosiy mazmuni odamlar bilan munosabatda bo'lishdir.

O'qituvchining yanabir asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy maqsadlarni tushunish va ularga erishish, boshqa odamlarning sa'y-harakatlarini yo'naltirishdir. Pedagog Mezinov fikricha: "O'qituvchi kasbining o'ziga xos xususiyatining faoliyati obyektning g'ayrioddiy dinamikligi, murakkablig va ko'rinishlarining xilma-xilligi. Shuning uchun ham o'qituvchidan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi talab etiladi".

O'qituvchilik kasbi jamiyatda doimo muhim o'rinn egallab kelgan. Bu haqida buyuk faylasuflar, o'qituvchilar, yozuvchilar, jamoat arboblari asarlarida qaydetilgan. Hattoki, qadimgi yunon faylasufi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sон Farmoni // Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019-y.



Platon ham bolalar o'qituvchisi sifatida burchlarigaadolat siz munosabatda bo'lishining og'ir oqibatlari haqida gapirgan. "Mamlakatda johil va yomon odamlarning butun avlodlari paydo bo'ladi, bularni ham o'qituvchi tarbiyalaydi". Ilmiy pedagogika asoschilaridan biri Y.A. Komenskiy "O'qituvchilar ajoyib mavqega ega bo'lgan, undan yuqori hech narsa quyosh ostida bo'lmaydi" –deya ta'kidlagan.<sup>2</sup> Biz bugungi ilmiy pedagogikaga asos solgan o'qituvchi mahorati haqida ko'plab fikrlar qoldigan rus pedagoglari A.S. Makarenko, V.Korgen, Y.A. Suxomlinskiy va boshqalarning fikriga ko'ra zamonaviy o'qituvchi shaxs, yorqin individuallik, erkin tanqidiy fikrlash, ijodiy o'ziga xos va tashabbuskor bo'lishi kerak. Agar ta'lim insonning hayot yo'lini to'gri tanlash imkoniyatlarini kengaytirishga va shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirishga qaratilgan jarayon bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilarining asosiy kasbiy vazifasi –bolaning o'zi bo'lishga qodir bo'lgan kema aylanishiga yordam beradigan yo'llar va vositalarni topishidir" (K. Rojers)

O'qituvchi ishining samaradorligiuning o'quvchilarini mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligi, o'tgan avlodlar tajribasida bo'limgan yangi muammolarni shakllantrish va yechishga tayyorligi bilan bog'liqdir. O'qituvchi ishining samaradorligi uchun o'quvchilarini mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligi, o'tgan avlodla rtajribasida bo'limgan yangi muammolarni shakllantirish va yechishga tayyorligi bilan bog'liqdir.

Kasbiy standart o'qituvchining o'z ishining natijalar uchun mas'uliyatini oshiradi. Bugun axborot texnologiyalari asosida tezr ivojlanayotgan dunyoda o'qituvchi doimiy ravishda o'z o'quvchilariga o'zining professional kasbini va qobiliyatini namoyon qilishi kerak. Bugungi o'qituvch o'zining kasbiy faoliyati bilan bir qatorda kamida bitta xorijiy tilni bilishi kerak. Bundan tashqari, bugungi o'qituvchi iqtidorllar bilan ishlashini, ularni uzluksiz darslarga jalb qilishi, inklyuziv dasturlarg a jalb qilishi, ijtimoiy e'tibordan qolgan o'quvchilarini ta'limga jalb qilishda mahoratga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi "o'qitish", "kimni o'qitish", "qanday qilib o'qitish" degan savollarga javob toppish.

Zamonaviy o'qituvchiga quidagi vazifalarni tavsiya qilamiz.

-oliy ma'lumotga ega bo'lish;

-fan o'quv dasturlari bo'yicha bilimlarni nomayon etish;

-darsni rejalashtirish, o'tkazish, uning samaradorligini tashkil qila olish;

-darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlarini, o'qitish shakllarini va usullarini o'zlashtirish, laboaratoriya tajribalarida amaliyoti va boshqalarni mukammal tashkil qila olish;

-ta'lim jarayoniga barcha talabalarni jalb qila olish ularga nisbatan maxsus yondashuvlarni bilish, alohida o'quvchi talabalar bilan ishlay olish, nogiron talabalar qalbiga yo'l topa olish va boshqalar;

-AKT bo'yicha kompetensiyalarga ega bo'lish;

-nazoratni turli shakllaridan foydalanish va talabalar bilimini baholay olish.

Zamonaviy o'qituvchi ta'lim sohasiga qanchalik mas'ul bo'lsa, tarbiyaviy ish sohasida ham quidagilarga javobgardir.

-tarbiyaviy ishning shakli va usullariga egalik qilish, ulardan darsda ham darsdan tashqarida ham foydalanish;

-ekskursiyalar, sayohatlar va ekspeditsiyalarni tashkil etish usullarin ibilish;

-muzey pedagogikasi metodlarini o'zlashtirish, ulardan o'quvchilarining dunyoqarashini kengaytirishda foydalanish;

-xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlash uchun talabalarning xatti-harakatlarini samarali tartibga solish;

<sup>2</sup> Komenskiy Y.A. Tanlangan pedagogik ishlar.-M. 1995. 600-b.



-o'quvchilarni (talabalarini) o'qitish va tarbiyalash jarayoniga jalg qilish;  
 -talim tashkilotida Nizom, odob-axloq qoidalariga muvofiq sinfda aniq xulq-atvor qoidalarini belgilash;  
 -o'quvchi (talabalar)ning ota-onalari bilan konstruktiv tarbiyaviy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash, oilada bolani tarbiyalash masalalariga e'tibor qaratish;  
 -o'quvchi (talabalar)ning qadr-qimmati va manfaatlarini himoya qilish, ziddiyatli vaziyatlarni yechimini topa olish.

O'qituvchi shaxsiyati, uning pedagogik faoliyati va mahoratini bir qator rus pedagoglari N.V. Kuzmina, A.I. Sherbakev, V.A. Slastenin o'z tatqiqot ishlarida tadqiq etishgan va pedagogik faoliyat tarkibida beshta komponentni aniqlab berishgan.<sup>3</sup> Jumladan, N.V. Kuzmina quyidagilarni: gnostik, dizayn, konsrtktiv, tashkiliy va komunikativ komponentlarni ko'rsatadi. A.K. Markova pedagogik faoliyatni mahorat bilan bog'lab pedagogik mahoratning 10 ta guruhini ajratib ko'rsatadi.

1. Pedagogik faoliyat (individual, pedagogikmayl, pedagogic oriyentatsiya).
2. Ijobiy munosabatlar.
3. Ta'lif berish qobiliyati.
4. Profesional va pedagogi bilim.
5. Qobiliyat va ko'nigmalar keyinchalik ta'lif texnologiyasi asosida shakllanadi.

Tez o'zgarib borayotgan zamnaviy dunyo bir vaqtning o'zida o'qituvchining ijtimoiy pedagogik funksiyalarini ham unga qo'yilgan talablarni ham o'zgartirmoqda. O'qituvchi endilikda an'anaviy predmetli o'qituvchi dan o'quvchi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy jarayonlar tashkilotchisiga aylanib bormoqda. Bugungi ta'lifning maqsadi nafaqat yangi bilimlar, maqsadlar, qadriyatlar va shaxsiy ma'nolarni uzatish balki, o'sib kelayotgan shaxsning qobiliyatlarini ochib berishdir. An'anaviy qarashlar yangi pedagogik tizimni egallab bormoqda va shu munosabat bilan jamiyat tomonidan o'quvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar o'zgarib, uning kasbiy faoliyatini yangilangan mazmuni va tuzilishini o'zida aks ettirmoqda.

**Natijalar va tavsiyalar:** Pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o'qituvchi shaxsining roli shubha tug'dirmaydi. Pedagogiklik kasbni tanlagan shaxsni kasbiy va shaxsiy fazilatlariga qo'yiladigan zamnaviy talablarni o'rganish muammosi bugungi kunda shubhasiz dolzarb va qiziqarlidir. Ushbu muammoning dolzarbligi, qo'yilgan mavzuning obyekti, predmeti va maqsadini aniqlash imkonini berdi. Maqsad- zamnaviy jamiyat tomonidan o'qituvchilikka qo'yiladigan talabalarni kuchaytirishdir.

1. O'qituvchi kasbini muvaffaqiyatli o'zlashtirish iuchun zarur bo'lgan asosiy qobiliyatlarini va kasbiy kompetensiya darajasini belgilash.
2. O'qituvchining insoniy va shaxsiy fazilatlarini ko'rib chiqish, ularni kasbiy faoliyatdagagi rolini aniqlash.
3. Zamnaviy o'qituvchining tashqi ko'rinishiga (imidjiga) qo'yiladigan asosiy talablarni tahlil qilish va ajratib ko'rsatish.

Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun asosan nazariy usullardan, mashhur falsafa pedagogika sohasidagi olimlarning tavsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda pedagog olimlarning fikrlariga ko'ra, o'qituvchi faoliyatida refleksiv qobiliyatlar muhim rol o'ynaydi<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Kenjaboyev A.E. Umumta'lif maktablarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishining ilmiy pedagogik asoslari. Zamnaviy ta'lif. 2017y.

<sup>4</sup> Sanaqulova Z.A. Significance of Upbringing the Future Teachers, Its Three Factors, Social Importance and Main Root. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol.24, Issue 08, 2020 ISSN: 1475-7192



Xulosa: Yuqoridagilardan kelib shiqib shuni aytish kerakki yuqorida keltirilgan fikrlar bilan bir qatorda o'qituvchining faoliyati yuzasidan quyidagilarni tavsiya sifatida keltirdik:

-mutaxassis uchun zarur bo'lgan axloq va fuqarolik, faollik va kasbga ishtiyoq, insonparvarlik va talabchanlik, do'stona munosabat va xushmuomalalik, o'qituvchilarning boshqa a'zolari bilan psixologik munosabatlar va boshqalar.

-xushmuomalalik, chidamlilik, o'zini tuta bilishi, kuzatuvchanlik, samimiylilik, topqirlik, qat'iyatlilik, so'z va harakatlarda izchillik, aniqlik kabi fazilatlar muhim rol tutadi.

O'qituvchi shaxsining ijtimoiy yo'naliishi, ya'ni uning ijtimoiy yetukligi va fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faolligi, yuksak darajadari bilim qiziqishlari tanlangan kasbiga fidoyilik va ishtiyoq bilan munosabatda bo'lishi zarur komponenti hisoblanadi.. Shunday qilib, har bir o'qituvchi o'z mutaxassisligi predmetidan qat'iy nazar muayyan umumiylashtirishning umuminsoniy fazilatlari, pedagogik bilim va ko'nikmalar majmuasiga ega bo'lishi kerak.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019-y.
2. Komenskiy Y.A. Tanlangan pedagogik ishlari.-M. 1995. 600-b.
3. Kenjaboyev A.E. Umumta'lim maktablarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishining ilmiy pedagogik asoslari. Zamonaviy ta'lim 2017 y.
4. Sanaqulova Z.A. Significance of Upbringing the Future Teachers, Its Three Factors, Social Importance and Main Root. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 08, 2020 ISSN: 1475-7192

